


Xizmatlar sohasining rivojlanishi – amalga oshirilayotgan islohotlarning ko'zgusidir

Bugungi kunda xizmatlar sohasi Qoraqalpog'iston Respublikasi iqtisodiyotining jadal rivojlanayotgan tarmoqlaridan biri hisoblanadi.

2020-yil yanvar-aprel oylarida bozor xizmatlari hajmi 1772,2 mlrd. so'mni tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 96,5 % ga o'sdi.

Xizmatlar tarkibida jami xizmatlarning eng katta ulushi: transport xizmatlari (24,5 %), savdo xizmatlari (22,3 %), moliyaviy xizmatlar (22,3 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (6,7 %) hissasiga to'g'ri keldi.


2020-yil yanvar-aprel oylarida ko'rsatilgan xizmatlar tarkibi, % da



Ma'lumot uchun: 2019-yil yanvar-aprel oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlarining hajmi 1678,5 mlrd. so'mga teng bo'lgan.

2020-yil yanvar-aprel oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi o'tgan yilning shu davriga nisbatan (93,7 mlrd. so'mga) oshdi. Joriy yilning oldingi 2020-yil yanvar-mart oylari davriga nisbatan xizmatlar hajmi (279,5 mlrd. so'mga) ko'paydi.

Ayrim xizmat turlari hajmining taqqoslanishi, mlrd. so'm




Joriy yilning oldingi davriga nisbatan ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmining o'sishiga transport xizmatlarida (57,2 mlrd. so'mga), savdo xizmatlari (59,9 mlrd. so'mga), moliyaviy xizmatlar (98,9 mlrd. so'mga) hamda aloqa va axborotlashtirish (27,2 mlrd. so'mga) kabi xizmatlar hajmining oshishi asosiy omillardan biri hisoblanadi.

**2020-yil yanvar-aprel oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ishlab
chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari**

	Hajmi, mlrd. so'm	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, % da
Xizmatlar - jami	1772,2	96,5
shu jumladan:		
aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	119,0	109,9
moliyaviy xizmatlar	394,9	133,8
transport xizmatlari	434,8	91,2
shu jumladan: avtotransport xizmatlari	219,4	86,5
yashash va ovqatlanish xizmatlari	49,0	89,8
savdo xizmatlari	394,6	89,9
ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	48,5	76,5
ta'lim sohasidagi xizmatlar	98,2	88,2
sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	19,6	75,8
ijara xizmatlari	32,9	74,0
kompyuterlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	45,5	78,6
shaxsiy xizmatlar	59,1	82,0
me'morchilik sohasidagi xizmatlar	27,6	64,9
boshqa xizmatlar	48,5	85,9

**2020-yil yanvar-aprel oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha
bozor xizmatlarining o'sish sur'atlari, % da**



- | | |
|---|--|
| 1 Xizmatlar - jami
2 Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari
3 Moliyaviy xizmatlar
4 Transport xizmatlari
5 Yashash va ovqatlanish xizmatlari
6 Savdo xizmatlari
7 Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlari | 8 Ta'lim sohasidagi xizmatlar
9 Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar
10 Ijara xizmatlari
11 Kompyuterlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar
12 Shaxsiy xizmatlar
13 Me'morchilik sohasidagi xizmatlar
14 Boshqa xizmatlar |
|---|--|

2020-yil yanvar-aprel oylarida o'tgan yilning mos davriga nisbatan moliyaviy xizmatlar (33,8 %) va aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (9,9 %) kabi xizmatlarda yuqori o'sish sur'atlari kuzatildi.

**2020-yil yanvar-aprel oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha
ko'rsatilgan bozor xizmatlarining tarkibi, % da**

Transport xizmatlari	24,5 %
Savdo xizmatlari	22,3 %
Moliyaviy xizmatlar	22,3 %
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	6,7 %
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	5,5 %
Shaxsiy xizmatlar	3,3 %
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	2,8 %
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	2,7 %
Boshqa xizmatlar	2,7 %
Kompyuterlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	2,6 %
Ijara xizmatlari	1,9 %
Me'morchilik sohasidagi xizmatlar	1,6 %
Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	1,1 %

Jami xizmatlar tarkibida eng katta ulush transport xizmatlari (24,5 %), savdo xizmatlari (22,3 %), moliyaviy xizmatlar (22,3 %) va aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (6,7 %) hissasiga to'g'ri keldi.

**2020-yil yanvar-aprel oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha
xizmatlar ishlab chiqarish hajmi**

	Transport xizmatlari	434,8 mlrd. so'm
	Moliyaviy xizmatlar	394,9 mlrd. so'm
	Savdo xizmatlari	394,6 mlrd. so'm
	Boshqa xizmatlar	128,6 mlrd. so'm
	Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	119,0 mlrd. so'm
	Ta'lim sohasidagi xizmatlar	98,2 mlrd. so'm
	Shaxsiy xizmatlar	59,1 mlrd. so'm
	Yashash va ovqatlanish xizmatlari	49,0 mlrd. so'm
	Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	48,5 mlrd. so'm
	Kompyuterlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	45,5 mlrd. so'm

Eng yuqori bozor xizmatlari hajmi transport xizmatlari (434,8 mlrd. so'm), moliyaviy xizmatlar (394,9 mlrd. so'm), savdo xizmatlari (394,6 mlrd. so'm) va aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (119,0 mlrd. so'm) bo'yicha kuzatildi.

Hozirgi vaqtida savdo sohasi iste'molchilarning bozor talabini shakllantirish jarayonida faol ishtirokchi hisoblanadi. Bugungi kunda savdo xizmatlari hudud iqtisodiyotida ko'rsatilayotgan xizmatlar umumiylajmi hajmining sezilarli qismini tashkil etadi. Respublikada zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalangan holda chakana savdo tarmoqlari faol rivojlanmoqda.


2020-yil yanvar-aprel oylarida savdo xizmatlari hajmi 394,6 mlrd. so'mga teng bo'ldi. Ko'rsatilgan xizmatlar umumiylajmi hajmidagi ulushi 22,3 % ni tashkil etdi.

Savdo xizmatlari tarkibida avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo bo'yicha xizmatlar katta salmoqqa ega bo'lib, uning ulushi 80,4 % ni tashkil etadi.

Ulgurji savdo bo'yicha xizmatlarining (avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari) ulushi 13,4 % ga yetdi.

Avtomobillar va mototsikllarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlarni qo'shgan holda avtomobillar va mototsikllar ulgurji va chakana savdosini bo'yicha xizmatlar umumiylajmi savdo xizmatlari hajmida 6,2 % ni egallaydi.

2020-yil yanvar-aprel oylarida savdo xizmatlari tarkibi, % da




- Avtomobillar va mototsikllarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlarni qo'shgan holda avtomobillar va mototsikllar ulgurji va chakana savdosini bo'yicha xizmatlar
- Ulgurji savdo bo'yicha xizmatlar (avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari)
- Avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo bo'yicha xizmatlar

Zamonaviy bank xizmatlari ko'rsatish, jumladan "raqamli" banklar va chakana xizmatlar ko'rsatishga ixtisoslashgan bank bo'linmalarini tashkil etish uchun innovatsion bank texnologiyalarini joriy qilish, masofadan turib bank xizmatlarini ko'rsatish, to'lov tizimini yanada rivojlantirish moliyaviy xizmatlarning jadal rivojlanishiga yordam beradi.

2020-yil yanvar-aprel oylarida moliyaviy xizmatlar hajmi 394,9 mlrd. so'mga teng bo'lib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati esa 133,8 % ni tashkil etdi.

**2020-yil yanvar-aprel oylarida moliyaviy
xizmatlarning tarkibi, % da**



**Xizmatlar sohasi statistikasi
bo'limi
71-230-82-15**